

“BOBURNOMA”DAGI PERIFRAZALI ANTROPONIMLARNING
LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Berdimurodova Dilnoza,

Turdiyeva Munisa,

Jo‘rayeva Gulbahor

QarMII akademik litseyi o‘qituvchilari.

Annotatsiya. Bu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari va unda qo‘llangan perifrazali antroponimlar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, perifraza, Sulton Husayn mirzo, Burhoniddin al-Marg‘inoniy, Imom Busiriy, Muhammad Sharif, Shoh Mansur, Chig‘atoyxon, Sulton Mahmudxon, Shahobiddin Abdulla, izofali birikma.

“Boburnoma” o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lgan memuar asardir. Unda ko‘plab lingvistik terminlar, istilohlar va atamalar uchun asos bo‘luvchi tilshunoslik hodisalari qo‘llanilgan. Shunday tilshunoslik hodisalardan biri perifrazadir. Perifraz(a) (yun. peri – yaqin, atrofida, phrasis – gapiraman) – narsa-hodisa, joy yoki shaxsni o‘z nomi bilan emas, unga xos tavsifiy belgilarni ifodalovchi so‘z birikmasi bilan atash; mohiyatan ko‘chimga yaqin bo‘lgani uchun manbalarda ko‘chim turi deb ko‘rsatiladi. Perifraz(a) deb ataluvchi tasviriy ifodalar ham badiiy nutqning emotsional-ekspressivligini ta‘minlovchi uslubiy vositalardan hisoblanadi.[2.243] Unda “narsa, hodisani o‘z nomi bilan emas, ularni xarakterli belgi – xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalash”ga aytilgan manbalarda. Masalan, *sher* – hayvonlar sultoni, *Samarqand* – Sharq darvozasi, *teatr* – ma‘naviyat o‘chog‘i kabi. Ammo bizning fikrimizcha, perifraza ba‘zan asarlarda o‘z nomi bilan birga uchraydi va vaqtlar o‘tgandan so‘ng yoki kitobxon o‘sha nomni saqlab qolish uchun perifrazani eslab qoladi. Bu hodisa “Boburnoma” asarini mutolaa qilganimizda undagi perifraza va tasviriy ifodalar orqali bunga guvoh bo‘lamiz. Shu maqsad bilan maqolamizda asardagi

antroponimlarga oid perifrazalarni tahlilga tortdik. Tahlil davomida shu narsalarga guvoh bo‘ldikki, antroponimlar bilan bog‘liq perifrazalar uchun ularning asari yoki o‘sha shaxs faoliyati bilan bog‘liq joy yoki xarakter-xususiyatlari yoki nasl-nasabi yoki jamiyatdagi ijtimoiy holati va hokazolar sabab bo‘lgan. Masalan, mana bu antroponim (nisbali taxallus)lar uchun asarlari perifraza sifatida qo‘llangan:

Imom al-Buxoriy – Sohibi “Sahihi Buxoriy”

Yana *sohibi* “*Sahihi Buxoriy*” Xoja Ismoil Xartang ham Movarounnahrdindur. [1.44-bet]

Burhoniddin al-Marg‘inoniy – Sohibi “Hidoya”

Yana *sohibi* “*Hidoya*”kim, Imom Abu Hanifa mazhabida “Hidoya”din mutabarroq kitobi fiqh kam bo‘lg‘oy. [1.44-bet]

Imom Busiriy – Sohibi “Qasidai Burda”

...*sohibi* “*Qasidayi Burda*”ning qasidasi maqbul tushib, o‘zi aflj marazidin xalos bo‘ldi, men dog‘i bu orizadin qutulub, nazmimning qabulig‘a dalile bo‘lg‘usidur. [1.318-bet] Ahmad Hojibek(Vafoiy) – Sohibi devon

“Vafoiy” taxallus qilur edi. *Sohibi devon* erdi, she‘ri yamon emas edi, bu bayt aningdurkim...[1.22-bet] Yuqoridagi Sohibi “Sahihi Buxoriy”, Sohibi “Hidoya”, *sohibi* “Hidoya”, Sohibi “Qasidai Burda”, Sohibi devon kabi perifrazalar izofali birikmalar bo‘lib, *sohib* leksemasi izofali birikmalarda biror bir asarning muallifi ma’nosida hamda biror bir mansab egasi ma’nolarida keng qo‘llanilgan.[4.319] o‘sha vaqtda izofali birikma shaklda kelgan.

Quyidagi antroponimlar uchun esa shu shaxsning nasl-nasabi perifraza bo‘lgan:

Chig‘atoyxon – Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li

Necha navbat qoyin otasi Yunusxonnikim, Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxon naslidandur, Chig‘atoyxonning yurtida mo‘g‘ul ulusining xoni ul fursatta ul erdikim, mening ulug‘ otam bo‘lg‘ay, istido qilib kelturdi. [1.9-bet]

Sulton Mahmudxon – Yunusxonning ulug‘ o‘g‘li

Bu fursatga mo‘g‘ul ulusining xon va sultonlig‘i Yunusxonning ulug‘ o‘g‘li – mening tog‘oyim Sulton Mahmudxon erdi. [1.9-bet]

Sulton Husayn mirzo – karim-ut tarafayn

...Onasi Firuzabegim edi. Temurbekning nabirasi. Sulton Husayn mirzo Mironshoh mirzoning ham nabirasi bo‘lur edi. Sulton Husayn mirzo karimut-tarafayn edi, asil podshoh edi... [1.146-bet]

Ushbu perifrazalar orqali tarixiy shaxslarning faoliyati, ijtimoiy o‘rni, xarakteri ochib berilgan. Bular esa stilistik figura sifatida asar badiiyligini ta‘minlagan va o‘ziga xos lingvopoetik xususiyatlar kasb etgan.

Sulton Mahmudning poytaxti – G‘azni

Yana bir G‘azni viloyatidir. Sabuqtigin birla Sulton Mahmudning va avlodining poytaxti G‘azni ekandur. [1.125-bet]

Qodirberdi — G‘avoning ulug‘i

Ul yerdin otlanib julgaga tushub, otlarni o‘tg‘a qo‘yduk. Namozdigar edikim, bir otliq kishi biz buqqon pushtag‘a chiqib boradur, tonidim: G‘avoning ulug‘i— Qodirberdi. [1.106]

Muhammad Sharif – Munajjimi shumnafas

Muhammad Sharif *munajjim shumnafas*, agarchi manga aytur yorosi yo‘q edi, har kimga yo‘luqsa mubolag‘alar bilan aytur erdikim: “Bu ayyomda Mirrix g‘arb saridur, har kim bu tarafdin urushsa mag‘lub bo‘lur”. [1.286-bet]

Shoh Mansur – Umdat-ul havas zudquai as‘hobi itisos

Shahobiddin Abdulla – Umdat-ul havas sodiq-ul ixlos

Maqarri izzati podshohi dar g‘ul muqarrar gasht va bar dasti rosti g‘ul birodari azizi arshadi arjumandi, saodat yor, almuxtassu biavostifil malikil-mustaon Chin Temur sulton farzandi azzi arshadi manzuri anzori hazrati ilo Xocha Kamoliddin Do‘st Xovand va Chaloliddin Shoh Mansur barlos *umdat-ul havas zudquai as‘hobi itisos* va *umdat-ul havas sodiq-ul ixlos* Shahobiddin Abdulla kitobdor dar mahalli xud qaror giriftand. [1.294-bet]

Sulton Bahlul Lo‘diy – Almuxtassu biavotifil malikil-mustaon

Va bar dasti chapi gʻul sultanat maob, *almuxtassu biavotifil malikil-mustaon* Sulton Alouddin Olamxon binni Bahlul Loʻdiy chamaoi devoniyoni izom har yak dar mavhiz muqarrar istodand. [1.294-b]

Davlatbegim – Mening onam va ulugʻ onam

Hasan Yaʻqub arkta edi. *Mening onam va ulugʻ onam* – eson Davlatbegim tosh qoʻrgʻonda chaqarda edilar. [1.96-b]

Shayx Zayn – Fathi podshohi islom

Shayx Zayn bu fathqa “Fathi podshohi islom” lafzini tarix topib, ruboiy aytib yiborib edi, – tavorud voqe boʻlubtur. [298-bet]

Bobur ijodida, xususan, “Boburnoma”da perifrazali antroponimlarda tashqari perifrazali toponim va boshqalar koʻplab uchraydi. Ular asar obrazlilikini va taʻsirchanligini yanada oshirgan, tasviriy boʻyoqdorlikni esa kuchaytirgan. “Boburnoma”, yuqorida aytib oʻtilganidek, juda serqirra asar namunasi. Unda har sohaning eng nozik jihatlarigacha ochib berilgan. Asarda XIV asrda soʻzlashuv nutqida qoʻllanilgan goʻzal perifrazalarning qoʻllanilganiga guvoh boʻlib turibmiz. Ular shoir mahoratining nechogʻliq buyukligidan dalolat beradi, Bobur asarlarini yana mutolaaga qilishga chorlaydi va ilmiy izlanishga sabab boʻladi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Tosh.: “Yulduzcha” nashriyoti, 1989, -368 b.
2. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qoʻngʻurov R., Rustamov H. Oʻzbek tili stilistikasi. – Tosh.: “Oʻqituvchi”, 1983, -248 b
3. Aytboyev D. Perifrazaning qoʻllanish doirasi // Ilm sarchashmalari. UrDU, 2006.-№ 4. -B. 56-59
4. Amonov M. “Boburnoma”dagi izofiy birikmalarning mavzuiy guruhlarini// NamDU ilmiy axborotnomasi, 2021 yil 11-son. -B314-319
5. Rajabov F. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi onomastik birliklarning leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari. Fil.fan.fal.dok(PhD) disser... – Toshkent, 2022.